



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 4 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

№	MUNDARIJA	Page
1.	ФИНАНСОВАЯ ОТЧЕТНОСТЬ СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ПРОБЕЛОВ РЕГУЛИРОВАНИЯ <i>Мусаев Азиз Анварович</i>	4
2.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA RISK LARNI BOSHQARISHNING MOLIYAVIY MEKANIZMLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR <i>Abdullayev Erkinjon A'zamovich</i>	6
3.	RIVOJLANGAN BOZORLAR VA O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA SUG'URTA TASHKILOTINING TO'LOV QOBILİYATINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Xalikov Umid Raxmatullayevich</i>	9
4.	AKSIYADORLIK JAMIYATLARIGA INVESTORLARNI JALB ETISHDA FOND BOZORIDAGI AKSIYALARINI NARXI TAHLILI <i>Ibragimov G'anijon G'ayratovich</i>	12
5.	MONETIZING SOCIAL MEDIA: OLS ESTIMATES OF CONTENT INTENSITY, ENGAGEMENT, AND ADVERTISING ON SALES <i>Majidov Abdulaziz Abdurahimovich</i>	16

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA RISKLARNI BOSHQARISHNING MOLIVAVIY MEKANIZMLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Abdullayev Erkinjon A'zamovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasida katta o'qituvchisi,
"FAROVON SUG'URTA" AJ Bosh direktori
Email: erkin.azamovich@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston sug'urta bozorida risklarni boshqarish jarayonida qo'llanilayotgan moliyaviy mexanizmlar tahlil etiladi. Asosiy e'tibor qayta sug'urtalash, kapitallashuv va to'lov qobiliyati kafolatlariga qaratiladi. Muammolar sifatida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy imkoniyatlarini cheklanganligi, qayta sug'urtalash faoliyatining samarador emasligi va prudensial normativlarning zaifligi sifatida ko'rsatilgan. Yechimlarga e'tibor qaratilganda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, qayta sug'urta amaliyotlarini rivojlantirish va riskga asoslangan tartibga solish (risk based supervision) mexanizmlarini joriy etish orqali izohlanadi.

Kalit so'zlar: sug'urta, risklar, moliyaviy mexanizmlar, qayta sug'urtalash, moliyaviy barqarorlik, RBS.

Abstract: This scientific article analyzes the financial mechanisms used in the process of risk management in the insurance market of Uzbekistan. The main focus is on reinsurance, capitalization and solvency guarantees. The problems are identified as limited financial capabilities of insurance organizations, inefficient reinsurance activities and weak prudential regulations. The focus on solutions is on strengthening financial stability, developing reinsurance practices and introducing risk-based supervision mechanisms.

Keywords: insurance, risks, financial mechanisms, reinsurance, financial stability, RBS.

Абстрактный: В данной научной статье анализируются финансовые механизмы, используемые в процессе управления рисками на страховом рынке Узбекистана. Основное внимание уделяется перестрахованию, капитализации и гарантиям платежеспособности. Выявлены проблемы, связанные с ограниченными финансовыми возможностями страховых организаций, неэффективной перестраховочной деятельностью и слабым пруденциальным регулированием. Основное внимание уделяется решению этих проблем, направленному на укрепление финансовой устойчивости, развитие практики перестрахования и внедрение механизмов риск-ориентированного надзора.

Ключевые слова: страхование, риски, финансовые механизмы, перестрахование, финансовая устойчивость, RBS.

Kirish (Введение/Introduction).

Dunyo amaliyotida risklarni sug'urtalash, xususan, jamiyatning evolyusion rivojlanishida o'zini-o'zi sug'urtalash, o'zaro sug'urtalash va turli xil tijorat sug'urtasi kabi sug'urta himoyasi mexanizmlarini ilmiy tadqiq qilish sohasida katta tajriba to'plangan.

Pandemiya, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar (urushlar, iqtisodiy cheklovlar) keyingi davrlarda jahon iqtisodiyotida ro'y bergan tub o'zgarishlar risklarni sug'urtalash mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish, shuningdek, ularni mavjud yangi iqtisodiy voqe'larga moslashtirishni talab etmoqda. Jumladan, sug'urtaning muqobil mexanizmlarini shakllantirish, har bir risk turi bo'yicha jahon miqyosida ehtimoliylik darajasini aniqlash, sug'urta tizimi va mexanizmlarining o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi tizimlarni yaratish orqali sug'urta samaradorligini oshirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda biznes muhitni yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, soliq va moliya sohasini tubdan isloh qilish, iqtisodiyotda xususiy mulk ulushini yanada oshirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish orqali uning iqtisodiyotdagi salmog'ini oshirish, mamlakat eksport salohiyatini yuksaltirish va import o'rmini bosuvchi mahsulotlarni ko'paytirish, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarini raqamlashtirish va startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash ekotizimini yaratish va ishga tushirish hozirgi kunda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning ustuvor yo'nalishlari bo'lib qolmoqda.

Mazkur iqtisodiy islohotlar doirasida "...mikromoliya bozori uchun yo'l ochib berildi. ...mikromoliya tashkilotlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi." [1], deb ko'rsatilganligi va "Sug'urta bozorini yanada rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy

etish orqali sug'urta xizmatlarining ommabopligini va sifatini oshirish, shuningdek, sohani tartibga solishni yanada takomillashtirish" bo'yicha dolzarb yo'nalishlarning belgilanganligi sug'urta sohasini yanada isloh qilish va modernizatsiyalash, xususan, mamlakatimizda inklyuziv sug'urta tizimini shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan kompleks va tizimli tadqiqotlar olib borish zaruriyatini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, 2021-yil 23-oktabrdagi PQ-5265-sonli "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-sonli "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadall rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlar to'g'risida" va 2024-yil 1-martdagi PQ-108-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari, 2022-yil 21-fevraldagi 80-sonli "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida", sug'urta tarmoqlarini takomillashtirishga qaratilgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Risklarni sug'urtalash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv yurtlari, jumladan, Allianz Research (Germaniya) [3], International Association of Insurance Supervisors (Sug'urta nazoratchilari xalqaro uyushmasi-SNXU) [4], The Geneva Association (Shveysariya) [5], National Bureau of Economic Research, Harvard Business School (AQSh) [6], London School of

Economics and Political Science (Buyuk Britaniya) [7], Barselona Scholl of Economics (Ispaniya) [8].

Risklarni sug'urtalash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi natijalar olingan, jumladan: sug'urtaning asosiy prinsiplariga muvofiq iqlim o'zgarishi bilan bog'lik risklarni sug'urtalovchilar tomonidan ochib berishning zarurligi asoslangan (The Geneva Association, Harvard Business School); sug'urta sanoatini barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun anderryatingdan faol foydalangan holda risklarni kamaytirish muhim o'rin tutishi aniqlangan (Allianz Research); uy xo'jaliklarini sug'urtalash ularni moliyalashtirish hajmini ko'payishiga, risklarni samarali boshqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslangan (London School of Economics and Political Science); aktuar jihatdan adolatli bo'lmagan narx-navo sharoitida riskka moyilligi mavjud bo'lmagan har qanday fuqarolar tomonidan sug'urta polislarini sotib olinishi aniqlangan (Barselona School of Economics, Allianz Research);

Hozirgi vaqtda jahonda risklarni sug'urtalash bo'yicha, jumladan, quyidagi yo'nalishlarda qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda: sug'urta xizmatlari turlari bo'yicha tarif stavkalarini belgilashda aktuar tashkilotlarning rolini oshirish; soxani rakamlashtirish nuqtai nazaridan risklarni sug'urtalash; kiberrisklarni sug'urtalash maqsadida axborotlar qiymatini baholashning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish; har qanday moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyatini mustahkamlashga yo'naltirilgan Solvency II prinsiplarini bosqichma-bosqich sug'urta kompaniyalari faoliyati amaliyotiga tatbiq etish; sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning samarali ishlaydigan tizimini yaratish.

O'zbekistonlik olimlar sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqqanlari qayta sug'urtalash va kapital yetarliligi muammolarini yoritgan [9]. Gulirayxon Baymuratova moliyaviy risk darajasini baholash usullarini tadqiq etgan [10]. Qayta sug'urta – moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi muhim vosita sifatida ta'kidlangan [11]. Shuningdek, sug'urtada investitsiya faoliyati va prudensial normativlarning roliga e'tibor qaratilgan tadqiqotlar mavjud [12].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Mazkur ilmiy maqolada tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va umumlashtirish, ekspert baholash va prognozlash, ekonometrik modellash, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalangan.

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты. Analysis and results).

Zamonaviy iqtisodiyotda risklarni sug'urtalash mexanizmlari tobora murakkablashib, global voqealar, pandemiyalar, iqtisodiy inqirozlar va siyosiy beqarorlik sharoitida o'zgarishga majbur bo'lmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zini-o'zi sug'urtalash, o'zaro sug'urtalash hamda tijorat sug'urtasi jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida risklarni boshqarishda muhim mexanizmlar bo'lib kelgan.

Xalqaro amaliyotda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha katta tajriba to'plangan:

- Riskga asoslangan nazorat - bu sug'urta tashkilotlari faoliyatini ularning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar darajasi va ularning moliyaviy tizimga ta'siriga qarab tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi zamonaviy usul hisoblanadi. Ushbu yondashuvda nazorat organlari o'z resurslarini eng yuqori risk darajasiga ega bo'lgan tashkilotlar va faoliyat turlariga qaratadi.

- Sug'urta himoyasi mexanizmlari – individual va korporativ risklarni minimallashtirish uchun o'zini-o'zi sug'urtalash, o'zaro sug'urta jamiyatlari va tijorat sug'urta kompaniyalaridan kompleks foydalanish.

- Yangi iqtisodiy voqealarga moslashuv – COVID-19 pandemiyasi, xalqaro siyosiy inqirozlar va iqtisodiy cheklovlar sharoitida risklarni sug'urtalashning an'anaviy mexanizmlari yetarli bo'lmay qolmoqda. Shu sababli, global sug'urta bozorlari muqobil sug'urta sxemalarini ishlab chiqish, ehtimollik darajalarini qayta hisoblash va risklarni qayta taqsimlashga e'tibor qaratmoqda.

- Raqamlashtirish va texnologik integratsiya – ilg'or davlatlarda sug'urta xizmatlari big data, aktuar modellari va sun'iy intellekt asosida boshqarilmoqda.

- Kiberrisklar va yangi yo'nalishlar – SNXU, Geneva Association, Allianz Research va boshqa markazlar tadqiqotlariga ko'ra, kelgusida sug'urtalashda kiberrisklar, global iqlim o'zgarishi xavflari hamda

transchegaraviy moliyaviy xavflarni baholash asosiy ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasida sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati masalasi 2008-yilda tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi Nizom"ga asoslanadi. Ushbu hujjat sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, to'lovga layoqatlilik marjasini hisoblash, aktivlarni joylashtirish, qayta sug'urta mexanizmlari va risklarni boshqarish qoidalarini belgilaydi.

Sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyati marjasi (Solvency Margin) normativi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyatini ta'minlash uchun belgilangan me'yor hisoblanadi.

To'lov qobiliyati marjasi normativi O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha sug'urtalovchilarning o'z aktivlari va qabul qilingan majburiyatlari nisbatini ifodalab bu ko'rsatkich 1,0 koeffitsientdan kam bo'lmashligi lozim. To'lov qobiliyati miqdorini hisoblashda ikki asosiy yondashuv qo'llanilib bunda mukofotlar usulida sug'urta mukofotlarining 20 foizi asosiy ko'rsatkich sifatida olinadi, to'lovlar usulida esa sug'urta tovonlari va zararlar zaxirasining 10 foizi hisoblanadi.

Sug'urtalovchilar aktivlarining bir manbaga haddan tashqari to'planishini cheklash, diversifikatsiya nuqtai nazaridan qat'iy me'yorlar belgilangan. Masalan:

- Bitta bankdagi depozitlar 40 foizdan oshmasligi kera;
- Bitta kompaniya ustav kapitalidagi ulush 30 foizdan oshmasligi shart;
- Ko'chmas mulk obyektlariga investitsiya 50 foizdan oshmasligi lozim;
- Alohida sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlar hajmi sug'urtalovchining o'z mablag'lari va zaxiralarning 20 foizdan oshmasligi lozim.

Rivojlangan davlatlar misolida ko'radigan bo'lsak Solvency II va ICS (Insurance Capital Standard) kabi normalar qo'llaniladi:

- Solvency II - Yevropa Ittifoqida majburiy bo'lgan normalar tizimi;
- Riskka asoslangan kapital - AQShda qo'llaniladigan yondashuv;
- ICS - Xalqaro Aktivlik Standarti tomonidan ishlab chiqilgan.

1-jadval
Sug'urta tashkilotlarini to'lov qobiliyatini aniqlash va risklarni boshqarish jadvali¹

Ko'rsatkich	O'zbekiston (2008-yilgi Nizom)	Yevropa (Solvency II)	AQSH (RBC Model)	Xalqaro ICS (SNXU)
Asosiy model	Kapital yetarliligi asosida soddilashtirilgan model	Riskga asoslangan kapital (SCR, MCR)	Risk-Based Capital tizimi	Insurance Capital Standard
Minimal kapital talabi	Ustav kapitalining eng kam miqdori belgilangan	MCR (Minimum Capital Requirement), SCR (Solvency Capital Requirement)	RBC formulaiga asoslangan	Global minimal kapital standarti
Hisoblash usuli	Mukofotlar usuli va to'lovlar usuli asosida	Bozor, kredit, operatsion va fikrlik risklar kompleks hisoblanadi	Asosiy risklar to'lovlar usuli asosida	Xalqaro solishtirma usuli asosida
Aktivlarni joylashtirish	Qat'iy chegaralar: 30% – 50% oralig'ida	Qat'iy chegaralar yo'q, riskga asoslangan baholash tizimi qo'llaniladi	Federal darajada moslashuvchan yondashuv	Risk darajasiga asoslangan moslashuvchan tizim
Qayta sug'urta	Majburiy diversifikatsiya mexanizmi mavjud	Ijtimoiy, lekin keng qo'llaniladi	Juda keng qo'llaniladi	Global muvofiqlashtirilgan mexanizmi
Moslashuvchanlik darajasi	Past – qat'iy normativ yondashuv	Yuqori – risk modellarni moslashtirish mumkin	O'rtacha, risk to'lovlariga qarab farqlanadi	Yuqori – xalqaro integratsiya asosida

1-jadvaldagi ma'lumotlar O'zbekiston, Yevropa (Solvency II), AQSH (RBC Model) va Xalqaro ICS (SNXU) sug'urta tizimlarini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan. O'zbekistondagi qat'iy cheklovlar kichik kompaniyalar ma'lum darajada xavfsizlikni oshirmoqda, ammo bozorning o'sish imkoniyatlarini cheklamoqda. Solvency II, RBC va ICS esa aktivlarni diversifikatsiyalashni moslashuvchan tarzda boshqarish imkonini beradi.

Shuningdek, qayta sug'urta mexanizmlari ham sug'urta risklarini taqsimlash va qayta taqsimlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-maydagi PQ-191-sonli qarori mamlakatimiz sug'urta bozorida, xususan qayta sug'urta tizimini rivojlantirish bo'yicha muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilishini inobatga olsak, asosiy maqsad sifatida milliy qayta sug'urta bozorini kengaytirish, bozor hajmini 4 trln.so'mga yetkazish, qayta sug'urta xizmatlari eksportini 30% ga oshirish, qayta sug'urta sohasiga

150 mlrd so'mga yaqin xorijiy va mahalliy kapitalni jalb qilish, "O'zbekiston qayta sug'urta kompaniyasi"ni tashkil etish – ustav kapitali 300 mlrd so'm bo'lib, ulushlar davlat (50%) va xususiy sektor (50%) tomonidan taqsimlash, xorijiy tashkilotlar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishdan oldin milliy kompaniyalar orqali risklarni taqsimlash tartibini joriy etish asosiy maqsad etib belgilangan.

O'zbekistonda qayta sug'urtaning majburiyligi kompaniyalar uchun xavfni kamaytiradi, biroq erkin bozor mexanizmlarini cheklaydi. Yevropa va AQSH esa kompaniyalarga mustaqil strategiya tanlash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar (Заключение. Conclusion).

Yuqorida keltirilgan tahlillardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni keltirishimiz mumkin:

O'zbekistonda 2008-yilda qabul qilingan hozirgi normativ-huquqiy baza kapital yetarliligi asosida soddalashtirilgan modelga asoslangan bo'lib, xalqaro standartlar (Solvency II, RBC, ICS) darajasiga yetishmagan. Qat'iy chegaralar va moslashuvchanlikning past darajasi sug'urta bozorining rivojlanishini cheklaganligini ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy, riskga asoslangan nazorat tizimiga o'tish sug'urta bozorining barqaror rivojlanishi uchun zarur hisoblanadi.

Shuningdek mazkur maqolamizda qayta sug'urtalash faoliyatining samarador emasligi alohida ta'kidlangan. Qayta sug'urta sohasini isloh qilishda davlat siyosati milliy qayta sug'urta kompaniyasini tashkil etish,

bozor hajmini oshirish va xorijiy kapitalni jalb qilishni ko'zda tutgan. Qayta sug'urtalash mexanizmlarini yanada rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali risklarni taqsimlash samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Sug'urta tashkilotlarining cheklangan moliyaviy imkoniyatlari, to'lov qobiliyati me'yorlarining zaifligi va aktivlarni joylashtirishdagi qat'iy chegaralar moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun kapital bazasini kuchaytirish, investitsiya portfelli diversifikatsiyasi va zamonaviy riskni boshqarish usullarini joriy etish mamlakatimiz sug'urta bozorini taqdirini bevosita belgilab beradi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, riskga asoslangan nazorat (RBS) tizimi sug'urta bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. O'zbekistonda RBSni joriy etish nazorat samaradorligini oshiradi, resurslarni optimal taqsimlaydi va sug'urta tashkilotlarining risklarni boshqarish madaniyatini yaxshilaydi.

Sug'urta bozorida raqamlashtirish, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili va boshqa innovatsion texnologiyalardan foydalanish risklarni baholash aniqligini oshiradi, ish yuritish xarajatlarni kamaytiradi va mijozlar uchun sug'urta mahsulotlarini yanada qulay va arzon qiladi. Texnologik modernizatsiya sug'urta bozorining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi." // <https://president.uz/uz/lists/view/7481>.
2. International Association of Insurance Supervisors, <http://www.iaisweb.org/uploads/2022/01/210930-GIMAR-special-topic-edition-climate-change.pdf>
3. Allianz Research, https://www.allianz.com/content/dam/onemarketing/azcom/Allianz_com/economic-research/publications/specials/en/2022/may/Global-Insurance-Report-2022.pdf
4. International Association of Insurance Supervisors, <http://www.iaisweb.org/uploads/2022/01/210930-GIMAR-special-topic-edition-climate-change.pdf>.
5. https://www.genevaassociation.org/sites/default/files/research-topics-documenttype/pdf_public/climate_litigation_04-07-2021.pdf;
6. National Bureau of Economic Research <https://www.nber.org/papers/w22293>; e Smidt, G., Botzen, W. Perceptions of Corporate Cyber Risks and Insurance Decision Making.
7. London School of Economics and Political Science, https://info.lse.ac.uk/staff/research-centres-and-groups?utm_source=Research+centres&utm_medium=Homepage+mega+menu&utm_campaign=LSE+Homepage;
8. Barcelona School of Economics, <https://bse.eu/research/working-papers/study-interaction-insurance-and-financial-markets-efficiencyand-full;>
9. Haqberdiyev, B. "Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish yo'llari" yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz
10. Haqberdiyev, B. "O'zbekiston sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari" zenodo.org
11. www.globalresearchnetwork.us
12. Baymuratova, G. "Sug'urta kompaniyalari moliyaviy risklarini baholash" yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz
13. Kamilov, B. U. "The Role of Reinsurance in Ensuring the Financial Stability of Uzbekistan Insurers" globalresearchnetwork.us